

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “PEUR/QO‘RQUV” KONSEPTIGA KIRUVCHI LEKSEMALAR

Davletov Kamaraddin Kurbonboyevich

UrDU doktoranti.

E-mail: k.k.davletov@gmail.com

Kirish

Qo‘rquv konsepti zamonaviy fransuz tilida *peur*, o‘zbek tilida esa *qo‘rquv* leksemalari orqali ifodalanadi. Fransuz tilidagi *peur* konseptual maydoniga kiruvchi *crainte, angoisse, frayeur, horreur, frousse, trac, effroi, épouvante, terreur* kabi so‘zlar va *avoir la trouille, avoir la pétoche, avoir les jetons, avoir les foies, avoir le trouillomètre à zéro* kabi turg‘un birikmalar *qo‘rquv*ning turli darajasini ko‘rsatish, uning oqibatida yuzaga kelgan inson reaksiyasini tasvirlash maqsadida qo‘llaniladi. Shubhasiz, asosiy va muhim bo‘lgani *peur* so‘zining o‘zidir. Fransuz tilining etimologik lug‘atiga ko‘ra *peur* so‘zi lotincha *poverum* so‘zidan kelib chiqqan.

Adabiyotlar tahlili metodologiyasi

Qo‘rquv hissiy konseptini tadqiq qilishda A. Vejbiskyaning “Nemis tilida *angst* tushunchasi” haqidagi, shuningdek, rus va ingliz tillarida *qo‘rquv* konsepti haqidagi tadqiqotlari [Vejbiskaya A. 1999;105]. N. A. Krasavskiyning “nemis tilida *qo‘rquv* tushunchasining leksik-semantik maydoni” tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlari [Krasavskiy, 2001]. O. N. Grigorevaning hozirgi zamon rus tilida *teror* tushunchasi tadqiqi to‘g‘risidagi ilmiy maqolalari [Grigoryeva, 2002; 85] bunga yorqin misol bo‘la oladi. Fransuz tilidagi *peur* konseptini tavsiflashda zamonaviy tadqiqot metodlari, ayniqsa Amerika strukturalistlari tomonidan keng qo‘llanilgan distributiv metod ancha foyda beradi. Distributsiya – "gapda so‘zlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan grammatik konstruksiyalar to‘plami va ushbu konstruksiyalarda ma‘lum bir so‘zlar bilangina ishlatiladigan elementlar sinflari"dir [Sahlgren, 2008; 33-53]. Ushbu metodning boshlang‘ich nuqtasi – so‘zning qo‘shilish qobiliyati uning ma‘nosi bilan chambarchas bog‘liq, ulardagi semantik farqlar va o‘ziga xos xususiyatlar so‘zlarning sintaktik aloqalarida namoyon bo‘ladi - degan gipotezadir. Chunki muntazam ravishda birgalikda uchraydigan so‘zlarning semantik ma‘nolarini barcha birikuv holatlarini sanab o‘tish orqali tasvirlash mumkin.

Muhokama

Bizning fikrimizcha, fransuz tilidagi *qo‘rquv* hissiyotini ifodalovchi *peur* va o‘zbek tilida *qo‘rquv* so‘zlari bir paytning o‘zida ham konseptga ham tushunchaga mos keladi. Konseptni nomlovchi leksema bu hissiyotni obyektiv ravishda, turli nyanslar va bo‘yoqlarsiz neytral holda aks ettiradi. Konseptga doir boshqa leksik-frazeologik birliklar *qo‘rquv*ning turli darajasini, semantik xususiyatlarini ifodalaydi.

Qo‘rquv emotsional konsepti semantik maydoni har ikkala tilda ham “*qo‘rquv*” ma‘nosini beruvchi sinonimik birliklardan tashkil topgan bo‘lib, ba‘zilari tub, boshqalari esa yasama so‘zlardir. Shuningdek ibora va qanotli jumalalar, *qo‘rquv*ning namoyon bo‘lishini tasvirlovchi (oqarib ketdi, palir) leksik birliklar ham mazkur konsept semantik maydoniga kiradi.

Demak, *peur* fransuz tilida *qo‘rquv* konseptini ifodalovchi dominant va identifikator so‘zdir. Aynan shu so‘z lug‘atlarda ko‘pincha boshqa otlar bilan konseptning boshqa leksik birliklarini izohlashda qo‘llaniladi. *Peur* – ma‘nodosh bo‘lgan otlari orasida eng ko‘p uchraydigan so‘z.

Etimologik jihatdan *peur* lotincha *pavor* soʻzidan kelib chiqqan.

Oʻzbek tilida esa *qoʻrquv* ushbu konseptini ifodalovchi dominant va identifikator soʻzdir va fransuz tilidagi kabi lugʻatlarda konseptning boshqa leksik birliklarini izohlashda qoʻllaniladi. Etimologik jihatdan *qoʻrquv* qadimgi turk tilidagi *qoʻri*, yaʼni *qoʻriqla* soʻzidan kelib chiqqan.

Natijalar

Mazkur tadqiqotimiz doirasida qoʻrquv konseptiga bevosita tegishli sinonimlarni shuningdek, qoʻrquvni bilvosita ifodalovchi boshqa leksik nirliklarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

I-jadval. Qoʻrquv konseptiga kiruvchi leksemalar.

№	Fransuz tili	Oʻzbek tili
1	Peur	Qoʻrquv
2	Apprehension	Qoʻrqinch
3	Affolement	Vahima
4	Angoisse	Tashvish
5	Anxiété	Talvasa
6	alarme	Haybat
7	Alerte	Vasvasa
8	Crainte	Dahshat
9	Effroi	Xayiqish
10	Epouvante	Choʻchish
11	Frayeur	Hadik
12	Horreur	Tahluka
13	Inquiétude	Xavotir
14	Panique	Sarosima
15	Terreur	Xavf
16	Affres	Talvasa
17	Trances	Esankirash
18	Phobie	Dovdirash
19	Timidité	Botina olmaslik

Jadvaldagi otlarining asl shaklini tahlil qilganda, qoʻrquvning fiziologik belgisi anglatuvchi otlar hissiyotni ifodalovchi otlarga (*angoisse, sarosima*), hissiyot sababidan uning natijasini anglatishga (*frayeur, tahluka*) oʻtishini kuzatish mumkin, shuningdek maʼnoning konkretan mavhumga (*apprehension, vahm*), xususiyatdan umumiy nomga (*panique, alarme, alerte, sarosima, gʻulgʻla*) oʻzgarishini kuzatishimiz mumkin. Bu metonimik hamda metaforik bogʻlanishlarga asoslanadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotimiz doirasida fransuz tilida "*qoʻrquv*" konseptiga tegishli boʻlgan oʻn toʻqqizta leksema tahlil qilishimiz uchun olingan boʻlib, ular qoʻrquvning turli darajasini va nyuanislarini ifodalaydi. Ular ichida *affres* va *translar* qoʻllanish darajasi nisbatan kamroq. Robert lugʻatida *affres, effroi* "eskirgan" (vieux) izohi bilan berilgan va asosan "*les affres de la mort*", yaʼni "*oʻlim talvasasi*" iborasida qoʻllanilishi aytilgan.

Shuningdek *-ment, -ation, -ité* qoʻshimchalari yordamida feʼldan yasalgan *épouvamment, transissement, tremblement, effarement, effarouchement, intimidation, terribilité* kabi bir qator otlar harakat nomini yoki bu harakatning natijasini bildiradi. Mavhum

otlar *timidité, lâcheté, pusillanimité, couardise* ham qo‘rquv konsepti bilan bog‘liq, lekin qo‘rquv hissining o‘zini emas, balki shaxsning qo‘rquvni boshdan kechirishga moyilligini bildiradi. Bu otlar *timide, lâche, pusillanime, couard, poltron* shaxsni tavsiflaydigan sifatleri bilan mos. Shuningdek *un epouvantail, un alarmiste, un terrorist, un panicard* kabi otlar hamda *un timide, un affolé* kabi shaxsni bildiruvchi sifatlar ham qorquv konseptiga taalluqlidir.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *qo‘rquv* his-tuyg‘uli holat, ruhiy holat deb izohlanadi. Qo‘rquvning sinonimi bo‘lmish *dahshat* so‘zini izohlashda esa nihoyat darajadagi qo‘rqinch, xavf, vahima leksemalaridan foydalanilgan. O‘zbek tilida mazkur konseptga tegishli bo‘lgan *qo‘rqinch, vahima, dahshat, sarosima, tahlika, talvasa, vasvasa, xavotir, hadik* kabi otlar qo‘rquvni umumlashtiradi va turli darajasini anglatadi O‘zbek tilidagi *-uv, -ish, -inch* qo‘shimchalari yordamida fe‘ldan yasalgan *qo‘rqish, hayiqish, cho‘chish, hadiksirash, esankirash, dovdirash* kabi bir qator otlar harakat nomini yoki bu harakatning natijasini bildiradi.. Shuningdek *olabo‘ji, vahma, vahimachi, terrorist, qo‘rqoq, juratsiz* kabi otlar hamda *uyatchan, dovdir* kabi sifatlar ham qorquv konseptiga taalluqlidir.

O‘zbek tilida *tashvish, qo‘rqoqlik, juratsizlik, yuraksizlik, qo‘rqoqlik, tortinchoqlik, hadiksirashlik* kabi harakat nomlari qo‘rquv konsepti semantik maydoniga kiradi. Bu so‘zlar semantik jihatdan tegishli sifatlar bilan bog‘liq bo‘lib, u yoki bu shaxsga doimiy ravishda xos bo‘lgan qo‘rquvni boshdan kechirish tendentsiyasini tavsiflaydi. *Hurkak* va *hurkovich* otlari asosan hayvonlarga xos qo‘rquvni anglatadi, *vahma, vahimachi* so‘zlari insonga xos hayoliy yoki asossiz qo‘rquvga moyil shaxsni bildiradi.

Qo‘rquv konseptining semantik maydoniga kiruvchi leksemalarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin: 1. Qo‘rquvni anglatuvchi asosiy leksik birliklar va ularning stilistik sinonimlari; 2. Mazkur hissiyotni bevosita ifodalamaydigan, ammo qo‘rquv sababli namoyon bo‘lish belgilarini ko‘rsatadigan leksik birliklar; 3. Asosiy leksik birliklarning o‘zagidan yasalgan antonimlari (masalan: qo‘rqmas). 4. Kontekstda sinonim yoki antonim rolini bajaradigan tavsiflovchi jumlar va frazeologik birliklar (masalan: *ne pas oser faire qch – biror narsa qilishga botina olmaslik kabi*).

Fransuz tili so‘zlashuv uslubida birlik sonda *trac, trouille, frousse, pétoche, poisse* ko‘plikda esa *foies, jetons, grolles, flubes copeaux, couilles, tripes* kabi otlar *fouter, flanquer, filer, avoir* fe‘llari bilan kelib, qo‘rquv hissiyotini ifodalaydi.

O‘zbek tilida qo‘rquv konseptiga kiruvchi otlar soni fransuz tilidagiga nisbatan kamsonli ekanligini ko‘rish mumkin, ammo so‘zlashuv uslubida fransuz tilidagi kabi qo‘rquvni anglatuvchi iboralar anchagina. Bulaga *joyidan jilolmay qolmoq, ichi o‘tib ketmoq, ichiga g‘ulg‘ula tushmoq, ishtonini ho‘llab qo‘ymoq, kayfi uchib ketmoq, kapalagi uchmoq, ko‘zi kosasidan chiqib ketmoq* singari turg‘un birikmalar misol bo‘la oladi. Shuningdek qo‘rquv natijasida paydo bo‘lgan belgilar ham qo‘rquvni anglatadi: *qo‘rquvdan qaltiramoq / titramoq, labiga uchuq chiqmoq, nafasi chiqmay qolmoq, oyog‘iga qaltiroq tushmoq, rangi dokadek oqarmoq* kabi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Grigoreva O. (2002). Imena terrora v sovremennom russkom yazike.: Vestnik Moskovskogo universiteta, nomer 9, Filologiya: 3.
2. Krasavskiy, N. (2001). Dinamika emotsionalnykh konseptov v nemeskoy i russkoy lingvokulturax. Dissertatsiya. VAK RF.

3. Sahlgren, M. (2008). The Distributional Hypothesis. From context to meaning. Distributional models of the lexicon in linguistics and cognitive science. (Special issue of the Italian Journal of Linguistics), Roma: Rivista di Linguistica.
4. Sardou, A. (2010). Nouveau Dictionnaire Des Synonymes Français. Paris: Editions Broché.
5. Vejbiskaya A. (1999). Semanticheskie universalii i opisaniye yazikov. Moskva : Yaziki russkoy kulturi.
6. Dictionnaire Des Synonymes De La Langue Francaise.
7. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
8. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
9. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
10. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
11. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
12. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
13. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
14. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
15. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
18. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.

19. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/"Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
20. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
21. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
22. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
23. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).